



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI TARIXINI O‘RGANILISHI: TAHLILY YONDASHUV

Xoliqulova Shaxnoza Boymuhammatovna
Navoiy davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston kimyo sanoati tarixini o‘rganish jarayoni analitik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda sovet davri ilmiy tadqiqotlarining mazmuni, ularning ideologik yo‘nalganligi hamda sanoat rivojini yoritishdagi xususiyatlari chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur davr izlanishlarida asosan ijobiy natijalar bo‘rttirib ko‘rsatilgani, mavjud muammolar esa yetarli darajada yoritilmagani hamda sinfiy-ideologik yondashuv ustuvor bo‘lgani asoslab beriladi. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi davrda obyektivlik, tanqidiy tahlil va yangi ilmiy yondashuvlar shakllangani ko‘rsatib beriladi. Maqola mazkur soha istoriografiyasini chuqur o‘rganish va baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kimyo sanoati tarixi, O‘zbekiston, istoriografiya, analitik yondashuv, sovet davri, ideologik ta‘sir, industrializatsiya, ilmiy tadqiqotlar, tanqidiy tahlil, mustaqillik davri, iqtisodiy rivojlanish, sanoat siyosati, arxiv manbalari, ilmiy meros.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Холикулова Шахноза Боймухамматовна
Навоийский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье процесс изучения истории химической промышленности Узбекистана рассматривается на основе аналитического подхода. Особое внимание уделяется содержанию научных исследований советского периода, их идеологической направленности, а также специфике освещения промышленного развития. Обосновано, что в исследованиях данного периода преимущественно преувеличивались положительные результаты, тогда как существующие проблемы раскрывались недостаточно, и доминировал классово-идеологический подход. Кроме того, показано, что в период после обретения независимости сформировались принципы объективности, критического анализа и новые научные подходы к изучению истории химической промышленности. Статья имеет важное значение для более глубокого изучения и оценки историографии данной отрасли.

Ключевые слова: история химической промышленности, Узбекистан, историография, аналитический подход, советский период, идеологическое влияние, индустриализация, научные исследования, критический анализ, период независимости, экономическое развитие, промышленная политика, архивные источники, научное наследие.

THE STUDY OF THE HISTORY OF THE CHEMICAL INDUSTRY OF UZBEKISTAN: AN ANALYTICAL APPROACH

Kholikulova Shakhnoza Boymukhammatovna
Navoi State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the process of studying the history of the chemical industry in Uzbekistan through an analytical approach. Particular attention is given to the content of scientific

research conducted during the Soviet period, its ideological orientation, and the specific features of interpreting industrial development. The study demonstrates that these works tended to exaggerate positive outcomes, while existing problems were insufficiently addressed, and a class-based ideological approach prevailed. Furthermore, it is shown that in the post-independence period, principles of objectivity, critical analysis, and new scholarly approaches to the study of the history of the chemical industry have emerged. The article is of significant importance for a deeper investigation and evaluation of the historiography of the sector.

Keywords: history of the chemical industry, Uzbekistan, historiography, analytical approach, Soviet period, ideological influence, industrialization, scientific research, critical analysis, independence period, economic development, industrial policy, archival sources, scientific heritage.

O‘zbekistonda kimyo sanoati tarixi masalasi ilmiy adabiyotlarda asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar sobiq Ittifoq davrida olib borilib, ularda asosiy e’tibor sanoatlashtirish jarayonlari, yirik kimyo korxonalarining barpo etilishi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘shishiga qaratilgan. Biz ushbu maqolada sovet ittifoqi davrida olib borilgan ayrim tadqiqotlarga to‘xtalib o‘tishni maqsad qildik.

Sovet davrida yozilgan ilmiy tadqiqotlarning ko‘pchiligida respublika ijtimoiy-iqtisodiy va sanoatlashtirishdagi harakatlari aksariyat ijobiy tomonlari bo‘rttirib, yuzaga kelgan muammolarning asl mohiyati sobiq ittifoq hukumati hamda kommunistik partiya manfaatlaridan kelib chiqib o‘rganilgan. Masalalar sinfiylik nuqtai nazaridan baholangan. Sobiq ittifoqning buyuk davlatchilik siyosati yoqlanib, kommunistik partiyaning harakatlari targ‘ib qilingan.

XX asrning 30–60-yillarida mavzu doirasiga kiradigan tadqiqotlar, asosan, matbuotda va turli to‘plamlarda e‘lon qilingan bo‘lib, ularning mualliflari tarixchilar, iqtisodchilar va davlat arboblari edi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng respublika matbuotida paydo bo‘lgan ilk maqola va risolalar [17; 223–264-b.; 18; 308–309-b.] asosan respublika rahbarlarining turli syezd va majlislarda qilgan ma‘ruza va hisobotlarida mavzuga oid ayrim ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin. Bu kabi maqolalarda kompartiyaning rejalarini zo‘r berib targ‘ib qilingan. Misol uchun: “Kommunistik partiyaning XXI syezdi qabul qilgan tarixiy qarorlarni hayotga tatbiq etish yo‘lida sovet xalqi yetti yillik rejaning birinchi yilida ulkan yutuqlarga erishdi. Ishchilar va ishchi ayollar, muhandislar va texniklarning ilhomlantiruvchi ijodiy mehnati natijasida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha yillik reja ortig‘i bilan bajarildi. Sotsialistik industriya rejadan tashqari o‘nlab milliard so‘mlik mahsulot berdi” [10; 3-b.] kabi shiorona hisobotlarni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur materiallarni tanqidiy tahlil etish o‘sha davrda respublikada kechgan sanoat va kimyo sanoatini rivojlantirishdagi jarayonlarni yoritishimizga yordam beradi.

Shu yillarda yozilgan asarlar orasida SSSR va O‘zbekiston kimyo sanoatini rivojlanishida kommunistik partiyaning o‘rni katta ekanligini ta’kidlovchi kichik risolalar yozilgan. Ular asosan texnik xodimlar, iqtisodchilar tomonidan yozilgan risolalardir. Ularning risolalarida kompartiyaning ishchilar sinfini shakllantirish uchun ta’lim sohasidagi ishlarini jonbozlik sifatida ko‘rishimiz mumkin. G.A. Shisterning risolasida: “Ishchi sinfning madaniy-texnikaviy o‘shishi uchun yangi istiqbollari KPSSning XX syezdi qarorlarida ochib berildi. Umumiy o‘rta ta’limga o‘tish, sirtqi va kechki o‘rta maxsus hamda oliy ta’limni keng rivojlantirish, ishchi-xodimlar uchun ta’lim olish sharoitlarini yaratish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi” [15; 3-b.] kabi g‘oyaviy zo‘r berishlar borligini ko‘rishimiz mumkin. V. Yerofeyevning risolasida Samarqand superfosfat zavodi go‘yoki asr qurilishi sifatida tilga olingan. “SSSRda ilk bor Samarqand zavodida bino-inshootlar qurmasdan, kontakt usulida oltingugurt kislotasi olish uchun sex qurilishi amalga oshirildi. Samarqand superfosfat zavodi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekspluatatsiya va ta’mirlash sharoitlari puxta ishlab chiqilgan taqdirda, oltingugurt kislotasi sexlarining apparaturalari ochiq maydonda samarali ishlashi mumkin. Bu esa qurilish va uskunalarni montaj qilishga ketadigan kapital xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi, sexlarni shamollatishni yengillashtiradi, zararli

gazlar hamda ortiqcha issiqlikni chiqarib yuborishni samarali tashkil etish imkonini beradi” [5; 8-b.]. Ammo bu tezlashtirib, hattoki binosiz ishga tushirilgan korxonalar hech qancha oʻtmasdan katta kamchiliklarga duch kelganligini birorta tadqiqotchi yozmagan. Bunday hisobotlarga ishonish bugungi kun internet (Vikipediya) [19. <https>] tarmoqlarda shu korxonalar xususidagi fikrlarda ham saqlanib qolgan. Biz haqiqatni arxiv maʼlumotlaridan bilishimiz mumkin.

1970–1980-yillarda Chirchiq kimyo korxonasi xususida yozilgan risolalar [8; 3-b.] eʼtiborimizni tortadi. Ushbu risolalarda ham, hisobot shaklidagi bir xil maʼlumotlar takrorlanib boradi. Ularning hech birida bu korxonani qurilishida jonbozlik koʻrsatgan texnik va loyiha xodimlari qatagʻon qilinganligi yozilmagan. Hatto mustaqillik [6; 3-b.] davrida korxonalar haqida yozilgan asarlarda ham bu maʼlumotlar yoʻq.

Chirchiq elektroxim korxonasini qurilishi xususidagi barcha adabiyotlarda internatsionalizm ishchilar mehnati mahsuli boʻlganligi taʼkidlanadi. “Chirchiqning ilk quruvchilariga aynan shu ulugʻ vazifani hayotga tatbiq etish sharafi nasib etdi. Ushbu qurilish jarayonida kompleks gʻoya amalga oshirildi: gidrotexnika inshootlarini barpo etish nafaqat mineral oʻgʻitlar ishlab chiqaradigan energiya talabchan kimyo kombinati qurish uchun asos boʻldi, balki suv resurslaridan paxta va boshqa qishloq xoʻjalik ekinlarini sugʻorishda oqilona foydalanish imkoniyatini ham yaratdi. Bu qurilish madaniyatni keng maʼnoda yuksaltirishda ham katta ahamiyat kasb etdi. Qurilish maydoniga mamlakat va respublika turli hududlaridan minglab odamlar, yoshlarning eng ilgʻor va faol vakillari toʻplandi. Bu yerda ular qurishni, boshqarishni oʻrgandilar, jamoaviylik va internatsionalizm ruhida tarbiyalandilar, yangi hayotni boshladilar” [8; 3-b.]. Bu holat davriy matbuotda [7; 3-b.] ham bor edi.

Oʻzbekistondagi kimyo ishlab chiqarishni toʻgʻri yoʻlni tanlab muntazam bu sanoat oʻsib borayotganligini texnik, iqtisodchi va kimyogar olimlar hamda xodimlar asarlari [13; 113-b.] va risolalarida yozib bordi [1; 7-b.]. Sh. Ulmasbayev, S. Slivanning asarida: “Besh yillik (1940–1945-yy.) davomida umumiy asosiy fondlar 3 barobar oʻsdi. Lekin ayrim tarmoqlarda: kimyo sanoatida – 57 barobar, paxta mato sanoati va tikuvchilikda – 27 barobar, qurilish materiallarida – 10 barobar, ip toʻquvchilikda – 7 barobar, metallash sanoatida – 3 barobar, poyabzal sanoatida – 3,5 barobar oʻsish kuzatildi” [13; 110-b.].

Iqtisodchi olimlar B. Desyatchikov, P. Kalyakin, Bedrintsev, I. Raskinlarning risolalarida asosan Oʻzbekistonning kimyo sanoati sohasida qoʻlga kiritgan iqtisodiy va sanoat qurilishi sohasidagi yutuqlari zoʻr berib yoritiladi. Bu davrda erishilgan yutuqlar asosan Ikkinchi jahon urushidan avvalgi davr va Rossiya imperiyasi bilan qiyosiy yoritiladi. “Urush yillarida kimyo sanoati ham ancha oʻsdi. Bu sanoatning yalpi mahsuloti bir necha marta koʻpaydi. 1940 yilgacha respublika kimyo sanoati Shoʻrsuvdagi oltingugurt koni va ikkita oʻgʻit aralashtirish zavodidan iborat edi. 1941 yilga kelib Chirchiq elektroximiya qurilishi tugallandi. Bu yerda qurilishning ancha qismi xalq tezkorlik bilan qurish metodi bilan bajardi. Keyinchalik koʻchirib keltirilgan asbob-uskunalarining oʻrnatilishi bilan kombinatning qudrati yanada ortdi. Arsenat kalsiy ishlab chiqaruvchi Quvasoy kimyo zavodi ishlay boshladi. Fargʻonada gidroliz zavodi va Qoʻqonda superfosfat zavodi qurila boshlandi. Bu zavodlar urush tamom boʻlgach ishga tushirildi” [4; 40-b.].

Kimyo fanining Oʻzbekistonda ishlab chiqarishga yoʻnaltirilganligi masalasida kimyogar olimlarning asarlaridan foydalanildi. Asosan aniq fikrlardan foydalanadigan kimyogar olimlar ham sohani yoritishda mafkuraviy tayangan holda yozgan. Fanning ishlab chiqarishdagi kamchiliklari sobiq ittifoq davri tadqiqotlarida deyarli uchramaydi. OʻzFA tomonidan nashr ettirilgan fundamental asarlar misolida koʻrishimiz mumkin: “Chirchiq elektroximiya kombinati, Fargʻona azot oʻgʻitlari zavodi, Qoʻqon va Samarqand superfosfat zavodlari, Andijon gidroliz zavodi va Fargʻona furan birikmalari zavodi, shuningdek qurilayotgan Navoiy kimyo kombinati, Olmaliq polimetall kombinati va boshqa korxonalar – sovet xalqining faxridir. Ilgari Oʻzbekistonda birorta ham oliy oʻquv yurti mavjud emas edi, hozir esa 2 ta universitet va 29 ta institut faol boʻlib, ularda taxminan 140 ming nafar talaba tahsil olmoqda. Respublika Fanlar

akademiyasi va 132 ta ilmiy muassasada jami 15 ming nafar ilmiy xodim mehnat qiladi, shu jumladan 270 nafar fan doktori va 3 ming nafardan ortiq fan nomzodlari mavjud. Ular xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy muammolar ustida ish olib bormoqdalar" [14; 6-7-b.].

Sovet ittifoqi miqyosidagi fundamental tadqiqotlarda P. Lukyanov, Lelchuk S., S. Yunusov, Davidov, E. Karpov asarlarida ham kimyo fani sanoatda muntazam yutuqlarga erishib borganligi yozilgan. 1959-1970-yillarda Markaziy Osiyo respublikalari va Qozog'iston uchun mineral o'g'itlar ishlab chiqarishning sezilarli darajada o'sishi bilan tavsiflanadi. Bunda mahalliy tabiiy gaz va fosforit konlari negizida ham azotli, ham fosforli o'g'itlar sanoati rivojlanib bordi. Ayniqsa azotli o'g'itlar ishlab chiqarish juda yuqori sur'atlarda rivojlandi: ularning ishlab chiqarish hajmi 1960 yilga nisbatan 6 baravardan ortiqqa oshdi, holbuki, butun SSSR bo'yicha bu ko'rsatkich 5,4 baravarni tashkil etgan edi. 1970 yilga kelib fosforli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi qator korxonalar, jumladan Qo'qon, Samarqand va Jambul zavodlari kengaytirildi va rekonstruksiya qilindi. Bu esa fosfor tarkibli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmini 2,6 baravarga oshirish imkonini berdi. Natijada o'n yillik oxiriga kelib Markaziy Osiyo respublikalari va Qozog'iston mamlakat uchun barcha fosforli o'g'itlarning beshdan bir qismigacha, azotli o'g'itlarning yettidan bir qismiga yaqinini, shuningdek oltingugurt kislotasi, natriy sulfat, kalsiy karbid, sariq fosfor, sirka kislotasi va boshqa mahsulotlarning 18 foizdan 77 foizgacha qismini ishlab chiqara boshladi. Markaziy Osiyo mineral o'g'itlarni olib kiruvchi hududdan, ayniqsa azotli o'g'itlar bo'yicha, ularni tashqariga chiqaruvchi hududga aylandi" [9; 368-b.].

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda mavzuga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sanoatning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi borasida qator tadqiqotlar olib borildi. S. Batishev, X. Yuldashev, L. Tetenevaning tadqiqotlarida ham mafkuraviy kommunizmning targ'ibotini ko'rishimiz mumkin: "O'sha yillarda sotsialistik musobaqa va uning eng yuqori ko'rinishi hisoblangan ishlab chiqarish novatorlari hamda ilg'orlar harakati O'zbekiston ishchi sinfining sanoatda ikkinchi besh yillik rejani bajarish uchun olib borgan kurashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu harakatni sotsialistik mehnatning yanada yuksak shakllarga rivojlanishi jarayonidan ajratgan holda ko'rib bo'lmaydi. Shu ma'noda, novatorlar harakati mehnatkashlar ozod mehnatning quvonchi va faxrini ilk bor his etgan birinchi lenincha shanba hasharlardan boshlab, kommunizmni keng miqyosda barpo etish davrida yuzaga kelgan kommunistik mehnat brigadalarigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lida o'tish bosqichi bo'ldi... Shubha yo'qki, deb ta'kidlagan edi KPSSning XXI qurultoyida N. S. Xrushchuyov, qahramon ishchi sinf, ilmiy va muhandis-texnikaviy ziyolilar ijodiy tashabbus ko'rsatib, sotsialistik musobaqani yanada keng yoygan holda, yetti yillik reja vazifalarini muvaffaqiyat bilan bajaradi va ortig'i bilan ado etadi" [12; 21-b.]. Tanqidiy yondashuv bo'lsa, faqat inqilobdan oldingi davrga qaratildi.

Qator tarixchi va iqtisodchi olimlarning ilmiy daraja olish uchun olib borilgan tadqiqotlarida kimyo sanoatining turli tomonlari o'rganilgan.

X. Saxabudinova [11; 28-b.] "Razvitie ximicheskoy promyshlennosti Uzbekistana" nomli avtoreferatida kimyo sanoatining iqtisodiy jihatlarini yoritgan. Ushbu avtoreferat O'zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanish tarixiga bag'ishlangan bo'lib, asarda kimyo sanoatining sovet davridagi asosiy bosqichlari tarixiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif sanoat tarmog'ining paydo bo'lishi, uning ishlab chiqarish bazasi, korxonalarining tashkil etilishi va rivojlanish dinamikasini ochib berishga harakat qiladi. Tadqiqotda asosan kimyo sanoatining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni, uning xalq xo'jaligiga qo'shgan hissasi hamda sanoat taraqqiyotining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Biroq tadqiqot davrimizni va muammolarni to'liq qamrab olmagan, asosan iqtisodiy tahlil qilingan.

S. Badridinovning [3; 25-b.] "Vklad trudyashchixsya v razvitie ximicheskoy promyshlennosti Uzbekistana (1971-1980 gg.)" nomli tadqiqot ishi tarix fanlari bo'yicha ilmiy daraja olish uchun yozilgan. Unda kimyo korxonalarini 1971-1980-yillarda ishchilar bilan

ta'minlanishi yozilgan. Ishning samaradorligini oshirish uchun respublika kimyo sanoati korxonalaridagi partiya, kasaba uyushmalari va komsomol tashkilotlari partiyaning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etganligi, tarmoq xodimlarining ijodiy faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratganligi hamda dissertatsiyada musobaqani tashkil etish va o'tkazishda mavjud bo'lgan jiddiy kamchiliklar ham tahlil qilinadi. Ular turg'unlik davriga xos bo'lgan salbiy holatlarni, tormozlash mexanizmining amal qilishini aks ettirgan. Ko'p hollarda ma'naviy va moddiy rag'batlantirish omillarining uyg'unlashuvi umumiy, rasmiy xarakterga ega bo'lib, harakatning asosan miqdoriy jihatini ifoda etgan. Tadqiqot 1988 yilda yozilganligi sababli turg'unlik davriga biroz tanqidiy yondashadi, ammo qayta qurish yo'qotishlariga ko'z yumadi.

G. Sharifxo'jayeva [16; 26-b.] "Istoriya stanovleniya i razvitiya ximicheskoy nauki i ximicheskoy promyshlennosti Uzbekistana (1917–1945 gg.)" nomli dissertatsiyasida 1917–1945-yillarda respublikada kimyo sanoati bilan uzviy bog'liq holda kimyo fanining shakllanish jarayonini tahlil qilish va umumlashtirgan. Shuningdek, O'zbekistonda kimyo sohasiga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va oliy o'quv yurtlarining vujudga kelish sabablarini aniqlagan. Amaliy kimyo bilan kimyo sanoati rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va qonuniyatlarini aniqlagan. Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyati shakl va usullarining takomillashuvi jarayonining mavjud muammolarni hal etishda mehnatkashlar faolligini oshirishga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kimyo sanoati tarixini o'rganish jarayoni uzoq vaqt davomida mafkuraviy cheklovlar ta'sirida shakllangan bo'lib, sovet davri ilmiy ishlarida sohaning yutuqlari ko'proq ideallashtirilgan, tizimli muammolar esa yetarlicha ochib berilmagan. Shu bilan birga, ushbu manbalar faktik ma'lumotlar bazasi sifatida muhim ahamiyatga ega ekani inkor etilmaydi. Mustaqillik davriga kelib, tarixshunoslikda xolislik, tanqidiy tahlil va manbalarga yangicha yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi, bu esa kimyo sanoati rivojining haqiqiy manzarasini tiklash imkonini bermoqda. Demak, sohani chuqur va ishonchli tadqiq etish uchun sovet davri merosini tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda zamonaviy ilmiy metodlar asosida kompleks tahlil olib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov M., Salimova E. O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi va ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirish. — Toshkent: O'zbekiston, 1986.
2. Багдасаров В. Из истории индустриального развития Узбекистана (1959–1965 гг.). — Ташкент: Фан, 1972.
3. Бадридинов С. Вклад трудящихся в развитие химической промышленности Узбекистана (1971–1980 гг.): дис. ... спец. 07.00.02. — Ташкент, 1988.
4. Десятчиков Б., Бедринцев Н. O'zbekiston sanoati 40 yil ichida. — Toshkent: O'zFA, 1957.
5. Ерофеев В. По пути технического прогресса (Самаркандский суперфосфатный завод). — Ташкент, 1960.
6. Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистан. — Ташкент, 1995.
7. Правда Востока. — 1940. — № 1, 1 января.
8. Первенец химии Узбекистана — Чирчикское производственное объединение «Электрохимпром». — Ташкент: НИИ научно-технической информации и технико-экономических исследований Госплана УзССР, 1978.
9. Развитие химической промышленности в СССР (1917–1980). Т. 1: Развитие научной и материально-технической базы химической промышленности. — М.: Наука, 1984.
10. Социалистические обязательства рабочих, инженеров и служащих промышленных предприятий Ферганского экономического района на 1960 год. — Коканд, 1960.
11. Сахабутдинова Х. Р. Развитие химической промышленности Узбекистана: автореф. дис. ... канд. экон. наук. — Ташкент, 1972.
12. Тетенева Л. Борьба рабочего класса Узбекистана за выполнение второго пятилетнего

плана в промышленности (1933–1937): автореф. дис. ... канд. ист. наук.

13. Ульмасбаев Ш., Слива С. Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти. — Ташкент, 1966.

14. Kimyo O‘zbekistonda. — Toshkent: Nauka, 1965.

15. Шистер Г. Повышение культурно-технического уровня рабочих Чирчикского электрохимического комбината. — Ташкент, 1957.

16. Шарифходжаева Г. История становления и развития химической науки и химической промышленности Узбекистана (1917–1945 гг.): дис. ... — Ташкент, 1991.

17. Юнусов С. Ю. Исследования в области химии алкалоидов // Юбилейный сборник, посвященный 25-летию Узбекской ССР. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1949.

18. Yangi besh yillikda og‘ir sanoatning roli // Qizil O‘zbekiston. — 1946. — 14 aprel; Promyshlennost’ Uzbekistana v novoy stalinskoy pyatiletke // Pravda Vostoka. — 1946. — 20 aprel.

19. Samarqand kimyo zavodi [Elektron manba]. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand_kimyo_zavodi